

2025-yil 24-sentabr

“O‘zkiymyosanoat” AJ va WorleyParsons Uzbekistan o‘rtasida ekologik hamkorlik yuzasidan uchrashuv bo‘lib o‘tdi



Bugun “O‘zkiymyosanoat” Ajda xalqaro Worley kompaniyasi tarkibiga kiruvchi WorleyParsons Uzbekistan kompaniyasi vakillari bilan uchrashuv tashkil etildi.

“WorleyParsons Uzbekistan” — global miqyosda muhandislik, texnologik maslahat va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida xizmat ko‘rsatuvchi Worley kompaniyasining mahalliy bo‘limi hisoblanadi. Ushbu kompaniya O‘zbekistonda ham bir qator sanoat va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda.



Uchrashuv doirasida “O‘zkimyosanoat” AJning Ekologiya va “yashil” iqtisodiyot bo‘limi mutaxassislari bilan hamkorlikda tarmoqdagi ekologik faoliyat, barqaror rivojlanish tamoyillari va kelgusida amalga oshirilishi mo‘ljallangan ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

Tomonlar ekologik standartlarni xalqaro mezonlar darajasiga olib chiqish, kimyo sanoatida uglerod izini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda “yashil” loyihalarni joriy etish borasidagi hamkorlik istiqbollari yuzasidan fikr almashdilar.



“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-va-worleyparsons-uzbekistan-o-rtasid-a-ekol>